



**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY  
FAOLIYATINI METODIK BOSHQARISH**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.074>

*Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti  
Zarpullayeva Kamola Zafar qizi*

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini metodik boshqarish masalalarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini shakllantirish, uni pedagogik jarayonda samarali boshqarish usullari va metodik yondashuvlar tahlil qilindi. Nazariy adabiyotlar, so‘rov va testlar, kuzatish va eksperiment asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, ijodiy faoliyat, metodik boshqaruv, pedagogik yondashuv, kasbiy salohiya

**KIRISH.** Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘qituvchining ijodiy salohiyati va faoliyati maktab ta‘limining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta‘lim jarayonining ilk bosqichida o‘quvchilarning bilim olish, fikrlash va mustaqil ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning metodik tayyorgarligini oshirish va faoliyatini samarali boshqarish bugungi ta‘lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘qituvchining ijodiy faoliyati nafaqat dars jarayonini boyitadi, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, yangi g‘oyalar yaratishga va muammolarni hal etishga o‘rgatadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy salohiyatini shakllantirish va uni metodik boshqarish masalalari nafaqat pedagogik, balki psixologik, ijtimoiy va innovatsion jihatlarni ham qamrab oladi.

Bugungi kunda pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchining ijodiy faoliyati va metodik boshqaruvning o‘zaro bog‘liqligi alohida o‘rganilmoqda. Bu esa o‘qituvchilarni tayyorlash

jarayonida ijodiy yondashuvlarni samarali qo‘llash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalar, interaktiv usullar va loyiha asosidagi metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini kuchaytiruvchi vositalar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini metodik boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini o‘rganishdir. Tadqiqot quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi: o‘qituvchilarning ijodiy faoliyati tushunchasini aniqlash, metodik boshqaruvning mazmuni va usullarini tahlil qilish, shuningdek, o‘quv jarayonida ijodiy yondashuvlarni qo‘llashning samaradorligini o‘rganish.

Mamlakatimizda yosh avlodning jismonan va ma‘nan barkamol bo‘lib voyaga yetishiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e‘tibor qaratilishi zamirida, albatta, mustaqil tafakkurli, ijodkor va yuksak ma‘naviyatli shaxsni kamol toptirish maqsadi mujassam. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusda ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalaridagi ishlarni yangicha tizim asosida yo‘lga qo‘yish borasida belgilangan vazifalar yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga daxldor muhim chora-tadbirlar ijrosini taqozo etadi. Shuningdek, 2018 yil 17 iyundagi “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi hamda 2019 yil 29 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida ham yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga qaratilgan kompleks vazifalar o‘z ifodasini topganligi masalaning jamiyat va millat hayotida dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Mazkur hujjatlarda qayd etilgan talablar uzluksiz ta‘lim tizimida qo‘lga kiritilayotgan innovatsion o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatiga bog‘liq bo‘lib, asosan, boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga ham tegishlidir. Chunki bu bosqichda o‘quvchilar savodxonlik asoslari, hisoblash tafakkuri, mehnat ko‘nikmalari va shaxs ma‘naviyati elementlari bilan qurollantiriladi. Shu bois, zamonaviy ta‘lim tizimi, uning maqsad va vazifalari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan ta‘lim-tarbiya jarayoni oldiga qo‘yilgan muammo yechimiga mos bo‘lishi kerak. Bular zamonaviy ta‘lim tizimidagi sub’yektlar, xususan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini jamiyat taraqqiyoti darajasiga muvofiq muntazam holda yuksaltirib borishni taqozo etadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyati va uning metodik boshqaruvi masalalari pedagogika nazariyasi va amaliyoti doirasida keng o‘rganilgan. Pedagogik adabiyotlarda ijodiy faoliyat tushunchasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan. Masalan, I. P. Pavlov va L. S. Vygotskiy ijodiy faoliyatni shaxsning individual fikrlash qobiliyati va muammolarni hal etish jarayoni sifatida talqin qilgan.<sup>52</sup> Shu bilan birga,

<sup>52</sup> Виготский, Л. С. Imagination and Creativity in Childhood. – Moscow: Просвещение, 2004.

pedagogik amaliyotda ijodiy yondashuvlar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida ko‘riladi.

O‘zbekiston va xorijiy manbalarda bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini shakllantirishning metodik jihatlari alohida e‘tiborga sazovor. Masalan, A. K. Sultonov<sup>53</sup> ijodiy faoliyatni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarning rolini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, G. E. Mamedova<sup>54</sup> bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi ularning ijodiy yondashuvlari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Metodik boshqaruv masalalarida ko‘plab tadqiqotlar o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ijodiy faoliyatni tizimli boshqarish usullariga e‘tibor qaratadi. Masalan, O. B. Karimova o‘qituvchilarni metodik boshqarish jarayonida motivatsion va psixologik yondashuvlarni qo‘llash samarali ekanligini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, M. T. Yusupov ijodiy faoliyatni baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish va metodik yordam ko‘rsatishning dolzarbligini bildiradi.<sup>55</sup>

Xorijiy tadqiqotlarda ham o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari keng o‘rganilgan. Masalan, Robinson ijodiy fikrlashni o‘qituvchilarning asosiy kasbiy ko‘nikmalaridan biri sifatida qabul qiladi va uni dars rejalashtirish, loyihalar tashkil etish va interaktiv metodlarni qo‘llash orqali shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Torrance ijodiy salohiyatni baholashning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish va o‘quv jarayonida qo‘llashni tavsiya etadi.<sup>56</sup>

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish va metodik boshqarish ko‘plab pedagogik, psixologik va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy adabiyotlar asosida metodik boshqaruvning samarali mexanizmlari ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi muhim hisoblanadi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini metodik boshqarish masalalarini o‘rganishda tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga asoslangan. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogika, psixologiya va ta‘lim boshqaruvi fanlarining nazariy tamoyillari tashkil qiladi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

---

– 248 p

<sup>53</sup> Султонов, А. К. Pedagogical Technologies for Developing Creative Skills. – Tashkent: Фан ва Та’лим, 2018. – 192 p.

<sup>54</sup> Мамедова, Г. Е. Methodological Preparation of Future Primary School Teachers. – Tashkent: Та’лим, 2020. – 210 p.

<sup>55</sup> Каримова, О. Б. Motivational and Psychological Approaches in Teacher Training. – Tashkent: Педагогика, 2019. – 176 p


<sup>56</sup> Torrance, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. – Bensenville, IL: Scholastic Testing Service, 2007. – 224 p.

Bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini samarali tashkil etishning pedagogik psixologik ta‘minotini yaratish va talabalarni istiqboldagi pedagogik faoliyatga ijodiy tayyorgarligini ta‘minlash oliy maktab tayyorgarligining eng muhim vazifalari ekanligini tavsiflaydi.

Chunki, bugungi kunda davlat tomonidan umumiy o‘rta ta‘lim maktabalarini qayta qurish, ularda ta‘lim sifati samaradorligini yuqori ko‘rsatgichlarga ko‘tarish, pedagog kadrlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, kasbiy – innovatsion tayyorgarligini oshirish, maktab o‘quvchilarini bilim darajasini oshirishga erishish masalalariga e‘tibor va munosabat ortib bormoqda.

Innovatsion faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishda ijodiy, motivasion, akmiologik, pedagogik - psixologik, texnologik va reflekv yondashuvlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish, yangicha yondashuv, ijodiy fikrlashuv va izlanishga hamda harakat qilishga o‘rgatish sanaladi. Ijodiy faoliyatga tayyorlashda talabalarning innovatsion qiziqishi, bilish faoliyati, intellektual ijodkorligi, kommunikativlik va kognitivligi, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijtimoiy faolliigi, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllanganligi kabilar.

Demak bo‘lajak o‘qituvchilarnilarda ijodiy faodliyatga tayyorlash ko‘p qirrali, murakkab pedagogik-psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘lib, uni samarali tashkil etish pedagogik-psixologik bilimlarni puxta o‘zlashtirilishini, tashkiliy-texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkillashtirilishini taqozo etadi. Bunda quyidagilar mazkur jarayonni takomillashtirish mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. (1-rasm)



**1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari**

Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini samaradorligini oshirishda yuqoridagi takomillashtirish mexanizmlari ushbu jarayonlarning samaradorligini ta‘minlashda, bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy faoliyati, innovatsion yondashuvi, ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash va faoliyatining shakllanganligining ahamiyati yuqori bo‘lib, pedagogic jarayonlarda talabalarning ijodiy foliyatini ta‘minlashda ularning ijodiy faolligi, ijodiy qibilyati, mustaqil faoliyati, ya‘ni mustaqil ta‘lim va mustaqil ma‘lumotlar olishi hamda o‘zini-o‘zi nazorat qilishi, o‘z ustida muntazzamishlashi, nazorat qilishi orqali ijodkorlikni tarkib toptirish kabilar muhim ahamiyatga egasanaladi.

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarni (kelgusida pedagogik jarayonlar deb keltiriladi) tashkil etishda quyidagi me‘zonlarga e‘tibor qaratish zarur<sup>57</sup>:

- ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta‘minlashda bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy faolligi va mustaqil faoliyatining ahamiyatini anglanganligi
- shaxslararo munosabatlarda ijodiy faoliyatni rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi;
- pedagogik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va integrativligi;
- pedagogik jarayonlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning ta‘siri, uning o‘ziga xos xususiyatlar, ahamiyati va zaruriyatini tushunganlik;
- motivlashtirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;
- pedagogik jarayonlarni samaradorligining ijodiy faoliyatni shakllantirish motivlashtirishning bog‘liqligi;
- motivlashtirish jarayonida AKT va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.

Demak, bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e‘tibor talab qilayotgan birinchi omil ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta‘minlashda bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy faoliyatining ahamiyati yuqori bo‘lib, pedagogic jarayonlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faolligini ta‘minlashda ularning mustaqil-ijodiy faoliyati, ya‘ni mustaqil ta‘lim va mustaqil ma‘lumotlar olishi hamda o‘zini-o‘zi tarbiyalashi muhim ahamiyat kasb etadi va bu ahamiyat ular rivojlanishga asos sifatida xizmat qilishida o‘z ifodasini topadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyati nafaqat ularning shaxsiy kasbiy salohiyatini shakllantirishda, balki o‘qituvchilarning bilim olish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili ijodiy faoliyat va metodik boshqaruv o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib

---

<sup>57</sup> Raximov B.X. Bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi: Ped. fan. nom. dis. ... avtoreferati. – Toshkent: 2002. – 22b.;

berdi, shuningdek, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ijodiy salohiyatni rivojlantirishga samarali vosita ekanligini tasdiqladi.

Metodologik tahlil natijalari esa ijodiy faoliyatni shakllantirish va boshqarish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqich mexanizmlarini ishlab chiqish mumkinligini ko‘rsatdi. Nazariy va amaliy tadqiqot usullarini uyg‘un qo‘llash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvlari aniqlanib, ularning metodik tayyorgarligi mustahkamlanadi. Shu bilan birga, interaktiv dars usullari, loyihaviy faoliyat va innovatsion pedagogik texnologiyalar ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi asosiy vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Виготский, Л. С. *Imagination and Creativity in Childhood*. — Moscow: Просвещение, 2004. — 248 p.
2. Султонов, А. К. *Pedagogical Technologies for Developing Creative Skills*. — Tashkent: Фан ва Та’лим, 2018. — 192 p.
3. Мамедова, Г. Е. *Methodological Preparation of Future Primary School Teachers*. — Tashkent: Talim, 2020. — 210 p.
4. Каримова, О. Б. *Motivational and Psychological Approaches in Teacher Training*. — Tashkent: Педагогика, 2019. — 176 p.
5. Юсупов, М. Т. *Evaluation of Creative Activity in Education*. — Tashkent: ИЛМ-фан, 2021. — 200 p.